JIZZAX VILOYATIDAGI MIGRASION JARAYONLARNING AHOLI MILLIY TARKIBIGA TA’SIRI

M.M Fayzullayev., S.R.Ahmadqulov
Guliston davlat pedagigika instituti o‘qituvchilari
M.V.Yo‘ldosheva. Guliston davlat pedagigika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jizzax viloyatidagi migratsion jarayonlarning aholi milliy tarkibiga ta’siri yoritilgan va unga doir faktik materiallar keltirib o‘tilgan. Jizzax viloyati aholisi haqidagi ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: migratsiya, aholi, mexanik harakat, tabiiy ko‘payishi, Jizzax, demografik, mehnat resurslari.

Mustaqillik yillarida Jizzax viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o‘z o‘rnida hudud aholisi orasidagi migratsion jarayonlarga, aholi milliy tarkibining o‘zgarishiga ham ta’sir qildi. Sababi mustaqillikning ilk yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, inflyasiya darajasining yuqori bo‘lganligi, ishsizlik hajmining oshishi va boshqa omillar ta'sirida Jizzax viloyatida ham o‘ziga xos migrasion jarayonlar yuz berdi.

Jizzax viloyati respublikaning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, Jizzax viloyatida 12 ta tuman, 6 ta shahar, 42 ta shaharcha, 529 ta qishloq aholi punkti bor.

Migratsiya - bu odamlarning turli sabablarga ko‘ra yashash joyidan boshqa joyga ko‘chishi. Migratsiya odamlarning ma’lum bir hududdan tashqariga doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyiga ko‘chib o‘tishi bilan sodir bo‘ladi. Yashash joyini unday o‘zgartirishiga “aholining mexanik harakati” – deyiladi.

Migratsiya demografik jarayonlarga bevosita ta’sir o‘tkazishi bilan birga, u mamlakatning demografik rivojlanishiga ham bilvosita ta’sir o‘tkazishi mumkin. Aholi migratsiyasi demografik jarayonlarga, ya’ni aholi sonining tabiiy o‘sishini, uning tarkibini, hududiy miqyosda joylashishi va harakatini o‘rganuvchi fanga ham muayan ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir u yoki bu hududga istiqomat qiluvchi aholining jinsi, yoshi va mashg‘ulotida migrasion harakat tufayli ro‘y beradigan o‘zgarish shaklida namoyon bo‘ladi.

Migratsion harakatning demografik jarayonga ta’siri muayyan muhitni hisobga olganda ijobiy va salbiy xarakteriga ega bo‘lishi mumkin.

Aholi migratsiyasining demografik jarayonlarga ijobiy ta’siri migrasion harakatda ishtirok etuvchi aholining yoshi va jinsiga bog‘liqdir, zero boshqa davlatlardan ko‘chib keluvchi aholi tarkibida yoshlar - yigit va juvonlar hamda o‘rta yoshdagi aholi odatda ko‘proq bo‘ladi.

Ma’lumki, sovet ittifoqining parchalanishi oqibatida barcha sobiq ittifoqdosh respublikalar, shu jumladan O‘zbekistonda ham murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat yuzaga kelib, bu holat respublika aholisining ijtimoiy ahvoli, migratsiyaning kuchayishi hamda milliy tarkibning o‘zgarib borishiga ta’sir qildi. Bu jarayonlar o‘z navbatida O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmadi.

Respublika miqyosida bo‘layotgan migrasion jarayonlar Jizzax viloyatida ham o‘zga ko‘rinishda yuz berib, bu viloyatlardagi demografik holatga ta’sir qildi, aholining tarkibiy tuzilishida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Statistik ma’lumotlarga murojaat qilinsa, aholi migratsiyasining kulminasiya nuqtasi mustaqillikning ilk yillariga to‘g‘ri keladi. Jumladan, Jizzax viloyatiga ko‘chib kelganlar 12 ming 749 kishi, ko‘chib ketganlar esa 16 ming kishidan iborat bo‘lgan.

Statistik ma’lumotlar foizlar misolida tahlil qilinganda, Jizzax viloyati (1990-1991 yillarda) O‘zbekistondagi jami migrantlarning eng kam ko‘rsatkichini tashkil qilgani ma’lum bo‘ldi. Masalan, viloyatda 1990 yilda kelganlar 3,7 ketganlar 3,9 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 1991 yillarda kelganlar 3,4 ketganlar 4,0 foizga to‘g‘ri kelgan. 1990 yilda Jizzax viloyatining tashqi migratsiyasida qatnashgan aholi 2,6 foizni, ichki migratsiyada esa 4,7 foizi ishtirok etgan bo‘lib, migratsiya jarayonida kelganlarga nisbatan ko‘chib ketganlar 2-2,2 barobarga ko‘p, aholining o‘sishi ichki migratsiyada - 18,1 foiz, tashqi migratsiyada - 3,2 foizga to‘g‘ri kelgan. 1997 yilga kelib Jizzax viloyatida migrasion jarayonda qatnashayotgan aholi soni kamayganligini aytib o‘tish lozim. Bunga asosiy sabab viloyat hududidan ayrim millatlarning ma’lum qismini ko‘chib ketishi va boshqa ayrim qiyinchiliklar sababli aholining ko‘chib yurishi kamayganligini kuzatish mumkin.

Shu o‘rinda qayd etish kerakki, Sovet davridagi mavsumiy va vaqtincha migratsiyada ishtirok etib Jizzax viloyatiga ko‘chib kelgan aholining bir qismi doimiy migratsiya turiga mos holda yashab qoldilar. 1997 yilda Jizzax viloyatidagi migrasion jarayonlarda 12385 kishi qatnashib, ko‘chib kelganlar 32,5 foiz, ko‘chib ketganlar 67,5 foizni tashkil etgan. Bu davrda Jizzax shahri aholisi migrasion faolligi bo‘yicha yetakchilik qilgan edi. Bunday faol migrasion jarayonni shaharning viloyat markazi ekanligi, shaharda boshqa millat vakillarining ko‘pligi hamda

shahardagi mavjud bo‘lgan turli korxona va tashkilotlarga migrantlarning kelib ketishi bilan izohlash mumkin.

2023 yilgi ma’lumotlarga e’tibor beriladigan bo‘lsa, Sharof Rashidov tumanida mexanik o‘sish ijobiy bo‘lganini ko‘rish mumkin, boshqa tumanlarda esa aksincha, keluvchilarga nisbatan ketuvchilar soni ortgan. Viloyatning Arnasoy, Baxmal, G‘allaorol, Do‘stlik, Forish tumanlari aholisi orasida ko‘chib ketayotganlar, kelayotganlardan ikki marta ko‘p miqdorni tashkil qilgan.

Jizzax viloyatida 2023 - yil 1 - aprel holatiga doimiy aholi soni 1483,1 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 7,6 ming kishiga yoki 100,5 % ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 695,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 46,9 %), qishloq aholisi soni 787,2 ming kishi (53,1 %) ni tashkil etdi. Statistik ma’lumotlarni taqqoslash uchun 2023 yili Jizzax viloyati hududiga 6307 kishi ko‘chib kelib, 8427 kishi ko‘chib ketgan edi. Jizzax viloyatiga ko‘chib kelganlarga nisbatan ko‘chib ketganlar soni ko‘proqdir. Jumladan, Jizzax shahriga 1484 kishi kelgan bo‘lsa, 1451 kishi ketgan, Arnasoy tumaniga 167 kishi kelgan bo‘lsa, 389 kishi ketgan, Forish tumaniga 263 kishi kelgan bo‘lsa, 608 kishi ketgan, Zomin tumaniga 574 kishi kelgan bo‘lsa, 613 kishi ketganligini ko‘rish mumkin.

2023 yil Jizzax viloyatidagi migratsion jarayonlar

№	Viloyati nomi	Kelgan aholi	Ketgan aholi
1	Jizzax	6307	8427


2023 yil Jizzax viloyati shaharlaridagi migratsion jarayonlar

№	Shahar nomi	Kelgan aholi	Ketgan aholi
1	Jizzax	1484	1451

2023 yili Jizzax viloyati tumanlaridagi migratsion jarayonlar

№	Tumanlar nomi	Kelgan aholi	Ketgan aholi
1	Arnasoy	167	389
2	Baxmal	336	842
3	G‘allaorol	334	758
4	Sharof Rashidov	1136	1017
5	Do‘stlik	326	586
6	Zomin	574	613
7	Zarbdor	341	497
8	Zafarobod	244	389
9	Mirzacho‘l	509	509
10	Paxtakor	485	560
11	Forish	263	608
12	Yangiobod	108	208

Jizzax vohasining o‘ziga xos geografik joylashuv xususiyatlari qadimdan o‘troq, yarim o‘troq dehqon va chorvador aholining shimoldan janubga, janubdan shimolga, sharqdan g‘arbga, g‘arbdan sharqqa tomon siljishlarida o‘ziga xos etnomuloqot hududi bo‘lganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga o‘troq va yarim o‘troq aholining muqim yashab qolishi, xo‘jalik yuritishi uchun barcha tabiiy sharoitlarni yaratgan, hududda qishloq xo‘jaligi, chorvachilik doimiy va mavsumiy tarzda rivojlanib borgan hamda ko‘chmanchi chorvachilikning o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi bilan mushtarak rivojlantirish imkoniyati ko‘plab etnik guruhlarni bu joyga ko‘chib kelib o‘rnashishlariga sabab bo‘lgan. Voha aholisi bugungi kunda etnik jihatdan murakkab tarkibga ega.



Jizzax viloyati aholisi milliy tarkibi

Jizzax viloyatida O'zbekiston Respublikasi aholisining 4,1% istiqomat qiladi. Jumladan, o'zbeklar – 1208,7 ming nafar, qirg'izlar – 41,6 ming nafar, qozoqlar-28,4 ming nafar, tojiklar-31,6 ming nafar, ruslar-14,9 ming nafar, tatarlar-6,4 ming nafar koreyslar-2,7 ming nafar, turkmanlar-0,4 ming nafar, qoraqalpoqlar-0,2 ming nafar boshqa millat va elatlar vakillari-17,3 ming nafarni tashkil etadi.

Vohaning o'troq aholisi turli tarixiy davrlarda ko'chib kelgan urug' va qavmlarning mushtarak etnik birligini tashkil qilsada, o'zining kelib chiqishi, urf-odatlari va ayrim milliy an'nalarini saqlab qolganligi bilan bir-biridan ajralib turgan.

Jizzax viloyatiga ko'chib kelganlar 6307 kishini, ko'chib ketganlar esa, 8427 kishini tashkil qildi. Ko'chib kelganlar orasida boshqa millat vakillari ham bo'lib, bu o'z navbatida Jizzax viloyati aholi milliy tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Tahlil etilayotgan yillarda hududga yuzaga ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sirida Jizzax viloyatida yashovchi aholisi orasida o'ziga xos ichki va tashqi migratsion jarayonlar yuz berib, aholining tashqi migratsiyasi Rossiya, Qozog'iston davlatlari bilan amalga oshirilib, unda asosan mehnat qobiliyatiga ega aholi vaqtinchalik ishlab kelish uchun ko'chib ketdilar (ayrimlari doimiy yashash uchun qolib ketgan). Ularning aksariyatini erkaklar tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.

2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 484 b.

3. Mirzaliyev U.B. O'zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlari (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari misolida, 1956-2020 yy.). Tarix fan. nomzodi... diss. – Toshkent, 2022.

4. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M. Shaharlar geografiyasi. – Tashkent, 2018. - 200 b.

5. Tilovberdiyev O. Mirzacho'l mardlar maskani. – Toshkent: O'zbekiston, 1969. - 46 b.

6. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. - 276 b.

7. Tojiyeva Z.N., Ata-Mirzayev O.B., Zokirov S.S. Demografiya. –Toshkent: O'z MU, 2013. - 74 b.

8. Soliyev A. Qishloq joylari demografiyasi. –Toshkent: Universitet, 2005. - 140 b .